

ORAVADARYO USTIDAGI ECHKI

(Slovak xalq ertagi)

Juda qadim zamonlarda Oravadaryo ustidagi Echkitog‘da judayam bir ajoyib tog‘ parisi yashagan ekan. Odamlar uni jonlaridan yaxshi ko‘rishar, chunki pari ularga yaxshi maslahatlar va pul berib siylar ekan.

Bir kuni xalq boshiga musibat tushibdi. — Oravadaryoda dahshatli darrandalar paydo bo‘libdi, degan ovoza tarqalibdi. Xalq barno yigit Yankoni tog‘ parisi oldiga jo‘natibdi, borib maslahat va yordam so‘ragin debdi. Yanko bedoviga egar uribdi-yu, gumburlagan momaqaldiroq, chaqnab turgan chaqmoqlar ostida daryo bo‘ylab o‘qday uchib ketibdi. U to‘ppa-to‘g‘ri daryo ustida osilib turgan Echkitog‘ oldiga borib, otdan tushibdi va otni qulab tushgan daraxtga bog‘lab qo‘yibdi. Keyin gulxan yoqibdi-da, tun cho‘kishini kuta boshlabdi. Odatda tog‘ parisi o‘sha paytda qoya ostidan chiqib kelar ekan.

Rosa tun yarmidan oqqanda xuddi ikki tabaqali eshikday qoya lang ochilibdi-da, ichkaridan xush-xandon tog‘ parisi chiqib kelibdi va quvnoq ohangda Yankodan: «Ne yumushlar bilan kelding bu yerga?» deb so‘rabdi.

-Oh, musibat, azizim, biz sho‘rliklarning hoshimizga musibat tushdi! — deb hasrat qila ketibdi Yanko. — Qishlog‘imiz odamlari yubordi meni. Aytishga til bormaydi! O, ne kunlarga qolmadik! Tog‘dagi qishloq ustida bir g‘or bor, o‘sha g‘orga ikkita odamxo‘r dev maskan qurib olgan. Qorong‘i tushdi deguncha ular g‘ordan uchib chiqishadi-da, sigir-u ho kizlarimizni tutib, maskanlariga sudrab ketishadi. Bitta ham molimiz qolmadi hisob, endi ochdan o‘lishimiz tayin. Shuning uchun oldingga ko‘mak so‘rab keldim, mehribon panohkorimiz! Bizlar darrandalar bilan olishgani ojizlik qilib qoldik, sen yordam bermasang bo‘lmaydi, jonginam!

Yankoning gaplarini eshitib, tog‘ parisi debdi:

-Bu darrandalarni bilaman. Bittasi shu yerga uchib keladi, huv anavi tepalikni ko‘rayapsanmi, o‘sha yerda o‘ljasini paqqos tushiraveradi. Mayli, ko‘p kuyinaverma, bu baloni bir yoqlik qilarmiz. Ma, mana bu xivchinni olib, uyingga bor-da, o‘sha g‘or oldida darrandalarni poyla. Ular g‘ordan chiqishlari bilan urib haydaysan. Ular darg‘azab bo‘lishadi, shunda xivchinni ularga berib yedir, o‘sha zahoti ikkovi ham mumday erib ketadi. Darrandalarni bir yoqlik qilib bo‘lgandan keyin oldimga kel, xizimatingga yarasha mukofotingni olasan!

Shunday debdi-da, pari qoya ichiga kirib g‘oyib bo‘libdi, qoya gumburlab berkilibdi.

Yanko tog‘ parisi aytganlarini to‘la-to‘kis bajo keltiribdi. Ikkala darrandani ham o‘ldirib, xalqni balodan xalos etibdi. Oradan bir oymi, ikki oymi o‘tib, Yanko tag‘in yo‘lga otlanibdi, egniga bashang kiyimlarini kiyib, otga minibdi. Ot uni daryo bo‘ylab Echkitoqqa olib boribdi. Yanko qoya ostida yana gulxan yoqibdi, otini sug‘oribdi, tun yarimlaganda tog‘ parisini chaqiribdi:

-Hoy pari, darrandalarni o‘ldirdim, butun Orava vodiysini xalos etdim. Va‘da qilgan mukofotingni bergil, qaylig‘im uchun ham biror sovg‘a in‘om et.

Oyog‘I tagidagi yer titrab, qoya ikkiga ajrabdi, undan tog‘ parisi yigitga peshvoz chiqibdi.

-Yaqinroq kel, Yanko, — xushchaqchalik bilan debdi pari. — Mana senga oltin va kumush, xohlaganingni ol, ammo yodingda tut: ko‘plab botirlar ochko‘zlik qurboni bo‘lib ketishgan. Sen ham o‘shalardan bo‘lma, chunki sen hali juda yoshsan. Yonida yana dur-u gavharlar-u qimmatbaho toshlar ham bor, hammasi senga, qaylig‘ingga. Lekin boshqa ta‘ma qilmagin, yo‘qsa o‘zingga qiyin bo‘ladi.

Yanko cho‘ntaklarini to‘ldiribdi, oltin-u kumushlarni xaltasiga joylabdi, yana allaqancha dur-gavharlardan olibdi. Turib-turib tag‘in nimalardan olsam ekan, deb atrofga alanglay boshlabdi. Qarasa, tog‘ parisining oltin chambari osig‘liq turganmish. «Ayni muddao!» debdi-yu...

Oh, bechora Yanko! Xudo urdi-ketdi! Yer titrabdi, qoya dahshatli gumburlab berkilib qolibdi. Ot cho‘chib o‘zini tashqariga urgan ekan, omon qolibdi, chavandozsiz uyga kirib boribdi. Chavandozsiz kelganidan hamma bilibdiki, Yanko o‘lgan. Ha, Yanko chindanam ana shu tariqa nobud bo‘lgan ekan.

“Oltin shahzoda” kitobidan